



YOSH TARIXCHILAR ILMIY IZLANISHLARIDA ARXEALOGIYA MASALALARI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti (Xorazm)

Tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Muhammadjonova Mohlaroyim Jamolbek qizi

Elektron po'chta: mohlaroyimmuhammadjonova521@gmail.com.

Tel: + 998953187177

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston arxeologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda akademik Ahmadali Asqarov ilmiy merosining mazkur soha taraqqiyotidagi o'rni tahlil etilgan. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning bosqichma-bosqich rivoji, sovet davrida shakllangan arxeologiya maktabining xususiyatlari hamda mustaqillik yillarida arxeologik merosni saqlash va o'rganish borasidagi yutuqlar yoritilgan. Shuningdek, Ahmadali Asqarovning arxeologik izlanishlarga qo'shgan hissasi, uning nazariy-metodologik yondashuvlari hamda yosh tadqiqotchilar uchun ilmiy ibrati haqida so'z yuritilgan.

Абстрактный: В статье анализируются этапы становления и развития узбекской археологии, роль научного наследия академика Ахмадали Аскарова в развитии этого направления. В статье рассматривается поэтапное развитие археологических исследований в конце XIX – начале XX веков, особенности археологической школы, сформировавшейся в советское время, а также достижения в сохранении и изучении археологического наследия в годы независимости. Также рассматриваются вклад Ахмадали Аскарова в археологические исследования, его теоретические и методические подходы, научный пример для молодых исследователей.



Abstract: This article analyzes the stages of formation and development of Uzbek archaeology and the role of the scientific heritage of academician Ahmadali Askarov in the development of this field. The article covers the gradual development of archaeological research from the late 19th - early 20th centuries, the characteristics of the archaeological school formed during the Soviet era, and achievements in the preservation and study of archaeological heritage during the years of independence. It also discusses Ahmadali Askarov's contribution to archaeological research, his theoretical and methodological approaches, and his scientific example for young researchers.

Kalit so'zlar: O'zbekiston arxeologiyasi, ilmiy izlanishlar, arxeologik yodgorliklar, Ahmadali Asqarov, milliy tarix, qadimiy sivilizatsiyalar, tarixiy manbalar.

Ключевые слова: археология Узбекистана, научные исследования, археологические памятники, Ахмадали Аскарров, национальная история, древние цивилизации, исторические источники.

Keywords: archaeology of Uzbekistan, scientific research, archaeological monuments, Ahmadali Askarov, national history, ancient civilizations, historical sources.

O'zbekiston hududi insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida tarix fanida alohida o'rin egallaydi. Bu yurtning boy moddiy madaniy merosini ilmiy asosda o'rganish arxeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda arxeologik izlanishlar tizimli yo'lga qo'yildi, bu jarayonda akademik Ahmadali Asqarov, Abdulxamid Sagdullayev, Toshpo'lat Shirinov singari olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Arxeologiya fani nafaqat qadimgi davrlarni o'rganish, balki milliy tarixshunoslikning ilmiy asoslarini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida arxeologik yodgorliklarni o'rganish ish keng yo'lga qoyilgan bo'lsada, keyinchalik ularni saqlash va ta'mirlash ishlariga e'tibor



kam bo'lgan. O'zFA Arxeologiya institutining ma'lumotlariga ko'ra, respublikamiz hududida 1960 yilgacha 30 mingga yaqin arxeologik yodgorliklar bo'lgan. Ularning buzilishi va yemirilishi, ekin maydonlariga qo'shilib ketishi oqibatida 80-yillarga kelib, ularning soni 9 mingga tushib qolgan va 90-yillarning o'rtalariga kelib, bu obidalarining soni bor-yo'g'i 5391 tani tashkil etgan[1].

1980-yillarga kelib arxeologiya fanining o'zbek maktabi tashkil etila boshlandi. Uning asoschilaridan biri akademik Ahmadali Asqarov bo'lib, u o'z tadqiqotlarida arxeologik topilmalarni tarixiy jarayonlar bilan bog'lab tahlil qilgan.

1895-yilda sharqshunos olim V.V.Bartold rahbarligida o'lkaning qadimgi tarixi va madaniyatini o'rganishga qaratilgan "Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi" tuziladi. Amalda 1917-yilgacha faoliyat yuritgan to'garakning asosiy vazifasi Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklarda tekshirish ishlarini olib borish, turli xil qo'lyozmalar, numizmatika va etnografiyaga oid moddiy ashyolarni topib o'rganishdan iborat edi. To'garak a'zolarining yodgorliklarni tekshirish, sirtidagi moddiy ashyolarni yig'ish va ayrim hollarda qazish ishlarini tashkil etish kabi havaskorlik mazmuniga ega izlanishlari o'z davrining muhim yutug'i bo'lgan. Mazkur izlanishlar ma'lum ilmiy-uslubiy me'yorga asoslanmagan bo'lsa-da, to'plangan ma'lumotlarning keyingi davrda olib borilgan tadqiqotishlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan[2].

O'zbekistondagi bu tadqiqotlarga nomdor tarixchi arxeologlar boshchilik qilgan. Ularga misol qilib akademik Y. G'ulomov, A. Asqarov, S. P. Tolstov, A. A. Marushchenko, V. D. Jukov, O'. Islomov va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bu olimlar turli hududlarda arxeologik ishlarni olib borganlar. Misol uchun o'zim yashaydigan hudud bo'lmish Qúvada ham yuqorida nomi tilga olingan arxeologlar faoliyat olib borishgan. Ularga misol keltiradigan bo'lsam V.D.Jukov. Jukov Quvadagi dastlabki arxeologik tadqiqotlarni o'tkazgan. Jukov bu yerlarda 1950-1952-yillar izlanishlar olib boradi. Keyingi yillarda esa aniqrog'i 1957-1958-yillarda bu yerlarda I. Axrorov tomonidan izlanishlar olib boriladi. I. Axrorov izlanishlari



natijasida bu yerdan 4ta antik davrga 22ta o'rta asrlar davriga oid manzilgohlarni topadi va xaritaga tushiradi. 1964-1965-yillarda bu yerlarda yangi chegaralar o'tkazilishi munosabati bilan yodgorliklarni boshqatdan ro'yxatga olish maqsadida yangi ekspeditsiya uyushtirilgan. Bu ekspeditsiya razvedka qidiruv va qazishma ishlarini olib boradi. Y. G'ulomov boshchiligidagi ushbu ekspeditsiya tarkibida Jukov, Axrorov, Muhammadjonov kabi ko'zgako'ringan nomdor arxeologlar ishtirok etgan[4].

Asqarovning tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlaridagi qadimgi manzilgohlar asosida O'zbekiston sivilizatsiyasining ilk bosqichlari yoritilgan. U arxeologiyani faqat moddiy topilmalarni o'rganish emas, balki xalq tarixiy tafakkurini tiklash vositasi sifatida ko'rgan.

Bugungi kunda Ahmadali Asqarov nomi bilan atalgan arxeologiya maktabi yosh olimlar uchun ibrat maktabi vazifasini o'tamoqda. Uning ilmiy uslubi-aniq dalillarga tayanish, topilmalarni tarixiy-madaniy kontekstda tahlil qilish O'zbekiston tarixshunosligining ilmiy metodologiyasiga aylangan[3].

Arxeologik yodgorliklarni saqlash masalasi mustaqillikdan keyingi davrda davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 72-sonli farmoyishida arxeologik merosni asrash, o'rganish va keng targ'ib qilish masalalari alohida belgilangan.

Xulosa: O'zbekiston arxeologiyasi bugungi kunda ilm-fan va milliy o'zlikni anglashning muhim tarmog'iga aylandi. Uning shakllanishida akademik Ahmadali Asqarovning o'rni beqiyosdir. U o'z izlanishlari bilan nafaqat qadimgi madaniyat qatlamlarini ochdi, balki milliy tarixiy tafakkurning mustahkam poydevorini yaratdi. Arxeologiya sohasidagi tadqiqotlar nafaqat o'tmishimizni o'rganish, balki yoshlar qalbida milliy iftixor va tarixiy ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, O'zbekiston arxeologiyasining rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish yosh tadqiqotchilar oldidagi muhim ilmiy vazifadir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva A. Arxealogiya. Toshkent. 2011-yil. 212 bet.
2. Ibragimov R. Arxealogiya. Toshkent. 2022-yil. 236 bet.
3. Jo'raqulov A. O'zbekiston arxealogiyasi va etnologiyasi. Toshkent. 2005-yil. 130 bet
4. Mamurov D. O'zbekistondagi arxealogik ishlarga rahbarlik qilgan olimlar. 2023-yil. 2 bet
5. <https://akademiklar.uz>.